



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilduza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmuro	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbasovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisoza Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	



BOSHLANG'ICH SINFDA INFORMATIKA FANINI O'QITISH METODIKASI



Nosirova Feruza Baxadir qizi

Samarqand shahar 7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi va raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali usullar tavsiflangan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda informatika fanini o'qitish sifatini oshirishga doir amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, informatika, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiya, innovatsion ta'lim.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of teaching computer science in primary education. It analyzes the importance of interactive teaching methods, digital technologies, and modern pedagogical approaches in improving the quality of the educational process. The study also highlights effective ways to develop pupils' logical thinking, digital literacy, and information competence. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to enhance the methodology of teaching computer science in primary schools.

Key words: primary education, computer science, teaching methodology, interactive methods, digital literacy, information and communication technologies, competence, innovative education.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические и практические основы методики преподавания информатики в начальных классах. Проанализирована роль интерактивных методов, цифровых технологий и современных педагогических подходов в повышении эффективности учебного процесса. Особое внимание уделено развитию логического мышления, цифровой грамотности и информационной компетентности учащихся. По результатам исследования предложены практические рекомендации по совершенствованию методики преподавания информатики в начальной школе.

Ключевые слова: начальное образование, информатика, методика преподавания, интерактивные методы, цифровая грамотность, информационно-коммуникационные технологии, компетентность, инновационное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda har bir shaxsdan raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olish, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan oqilona foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu bois boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'quvchilarda informatika faniga oid dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi [1, 3].

Boshlang'ich sinfdan informatika fanini o'qitish nafaqat kompyuter bilan ishlashni o'rgatishga, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodiy yondashuvi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali o'quvchilarda algoritmik tafakkur, axborot madaniyati va raqamli savodxonlik bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlarida fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga mustahkam zamin yaratadi. [3, 9]

So'nggi yillarda boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish hamda raqamli ta'lim resurslarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi. Shuningdek, o'qituvchidan dars jarayonini zamonaviy



pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish talab etiladi. [4, 5]

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini yoritish hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metod va vositalarni ilmiy asosda tavsiflashdan iborat. Tadqiqot davomida informatika fanini o'qitishning samarali usullari, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. [8, 10]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda informatika fanini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, algoritmik tafakkurni shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish masalalari alohida o'rin egallaydi. Ilmiy manbalarda informatika fanini o'qitishning mazmuni faqat kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bilangina cheklanmasdan, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, muammoni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi zarurligi ta'kidlanadi. [5]

Mahalliy pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda informatika fanini bosqichma-bosqich o'qitishning afzalliklari yoritilgan. Ularning fikricha, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, didaktik o'yinlarni qo'llash, multimedia vositalari hamda elektron ta'lim resurslaridan unumli foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarni puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi. [4, 6]

Xorijiy tadqiqotlarda esa raqamli ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, kodlash elementlari, algoritmik fikrlash va kreativ yondashuvni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar informatika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali o'quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. [8, 9]

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Biroq ta'limning zamonaviy talablari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi mazkur metodikani muntazam ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda. Shu sababli darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. [7]

Mazkur maqolada aynan ushbu jihatlar tahlil qilinib, boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvlar ilmiy va amaliy nuqtai nazardan asoslab beriladi. [10]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish metodikasining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirilib, olingan natijalarning ishonchligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. [2]

Tadqiqotning nazariy asosini boshlang'ich ta'lim, informatika fanini o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etdi. mavzuga doir ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilinib, mavjud metodik yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari aniqlandi. Mazkur tahlil asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlariga mos metodik yondashuvlar tanlab olindi. [5, 6]

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, umimlashtirish, tizimli yondashuv, suhbat va amaliy tajribalarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish yordamida dars jarayonida qo'llanilayotgan metodlarning o'quvchilar faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni o'zlashtirish darajasiga ta'siri o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlarining samaradorligi solishtirildi hamda ularning o'ziga xos jihatlari ilmiy asosda baholandi. [4]

Tadqiqotda interfaol metodlardan foydalanishning natijadorligi ham alohida tahlil qilindi. Xususan, "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Insert", "FSMU", "Keys-stadi", didaktik o'yinlar hamda raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, mantiqiy tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni nuqtai nazaridan baholandi. Olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, ularning ta'lim sifati va dars samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. [8, 10]

Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Bunda o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki axborot bilan ishlash, algoritmik fikrlash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, jamoada ishlash va raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy mezon sifatida belgilandi. Shuningdek, ta'lim jarayonida individual va differensial yondashuvni qo'llash orqali har bir o'quvchining qobiliyati va o'zlashtirish darajasini hisobga olish imkoniyatlari ham o'rganildi. [3, 9].

Tadqiqot natijalari ilmiy tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati baholandi. Olingan xulosalar asosida boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash hamda o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda informatika fanini samarali o'qitish o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilish faoliyatini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoniga bevosita bog'liq. Tadqiqot davomida darslarni an'anaviy va zamonaviy metodlar asosida tashkil etishning natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, fanga qiziqishi va mustaqil fikrlash darajasi sezilarli ravishda ortadi. [4].

Boshlang'ich ta'limda informatika fanini o'qitishda vizual materiallar, animatsiyalar, elektron taqdimotlar, didaktik o'yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni tezroq anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, algoritmlar tuzish, ketma-ketliklarni aniqlash, mantiqiy masalalarni yechish va axborot bilan ishlashga oid topshiriqlarni o'yin elementlari bilan uyg'unlashtirish dars samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchilar yangi bilimlarni qiziqish bilan o'zlashtiradi hamda amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. [8, 9].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "BBB", "FSMU", "Baliq skeleti" kabi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi. Guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon etishga, muloqot qilishga hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo'ladilar. Natijada o'quvchilarda axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish kompetensiyalari shakllanadi. [5, 6].

Shuningdek, informatika darslarida zamonaviy raqamli ta'lim platformalari va elektron resurslardan foydalanish o'qituvchi faoliyatini samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Elektron testlar, interaktiv topshiriqlar va virtual mashqlar orqali o'quvchilarning bilimni tezkor baholash, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati kengayadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. [10].

Olib borilgan tahlillar natijasida boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. O'quvchilar faqat nazariy bilimlarni egallabgina qolmay, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, muammolarni mustaqil hal etish va zamonaviy raqamli vositalardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Mazkur yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi tadqiqot natijalari orqali o'z tasdig'ini topdi. [3, 7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida boshlang'ich sinflarda informatika fanini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Mazkur fan o'quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyati, algoritmik tafakkur, mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda raqamli savodxonlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois informatika darslarini o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish ta'limning kutilgan natijalariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi, bilimlarni puxta o'zlashtirishga xizmat qilishi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va muammoli vaziyatlarga yechim topish kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, informatika fanini boshqa o'quv fanlari bilan integratsiyalash, zamonaviy raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish va amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish darslarning mazmunini yanada boyitadi. Bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga hamda ularning raqamli kompetensiyalarini izchil rivojlantirishga imkon yaratadi.



Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- boshlang'ich sinflarda informatika darslarida interfaol metodlardan muntazam foydalanishni kengaytirish;
- dars jarayoniga zamonaviy raqamli ta'lim platformalari va elektron o'quv resurslarini yanada faol joriy etish;
- o'quvchilarning algoritmik tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar sonini ko'paytirish;
- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini takomillashtirish;
- informatika fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda informatika fanini zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda ularni raqamli jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari. – Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2023.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2018.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017.
6. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Begimqulov U. Sh. Ta'limni axborotlashtirish va pedagogik dasturiy vositalar. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Informatika fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
10. Xolmatov T., Ahmedov B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.